

AFG'ONISTON VA XITOY MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudayberdiyev Ikrom
TIFT o'qituvchisi (PhD)

ANNOTATSIYA

Maqolada Afg'oniston va Xitoy munosabatlarining rivojlanishi, ular o'rtasidagi munosabatlar dinamikasi va o'zaro manfaatli loyihalarning ikki davlat uchun ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, Xitoy tomonidan ilgari surilayotgan iqtisodiy loyihalarning maqsadlari va mintaqadagi xavfsizlik bilan bog'liq jarayonlarga bog'langan holda tahlil qilingan. Maqoladagi ketirilgan ma'lumotlar va xaritalar ilmiy asoslangan manbalardan olingan bo'lib, hozirgi davrdagi Afg'oniston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatni to'g'ri baholashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: "Kao-fu", Mo'g'ullar, de-yure, "Pushtiniston", "Savr inqilobi", "Sharqiy Turkiston Islom harakati", Mulla Umar, "Bir makon bir yo'l", Vaxon yo'lagi, Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo'lagi, Shinjon-Uyg'ur avtonomiysi.

ОСОБЕННОСТИ АФГАНИСТАНСКО-КИТАЙСКИХ ОТНОШЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В статье освещается развитие отношений между Афганистаном и Китаем, динамика отношений между ними, а также важность взаимовыгодных проектов для двух стран. В нем также проанализированы цели экономических проектов, продвигаемых Китаем, и их связь с процессами, связанными с безопасностью в регионе. Представленная в статье информация и карты взяты из научно обоснованных источников и помогают правильно оценить текущую экономическую и политическую ситуацию между Афганистаном и Китаем.

Ключевые слова: «Као-фу», монголы, де-юре, «Пуштинистан», «Саурская революция», «Исламское движение Восточного Туркестана», мулла Омар, «Один пояс, один путь», Ваханский коридор, китайско-пакистанский экономический коридор, Синьцзян-Уйгурская автономия.

SPECIFIC FEATURES OF AFGHANISTAN-CHINA RELATIONS

ABSTRACT

The article highlights the development of relations between Afghanistan and China, the dynamics of relations between them, and the importance of mutually beneficial projects for the two countries. It also analyzes the goals of economic


projects promoted by China in relation to security processes in the region. The information and maps presented in the article are taken from scientifically based sources and help to correctly assess the current economic and political situation between Afghanistan and China.

Key words: "Kao-fu", Mongols, de jure, "Pushtinistan", "Saur Revolution", "East Turkestan Islamic Movement", Mullah Omar, "One Belt, One Road", Wakhan Corridor, China-Pakistan Economic Corridor, Xinjiang Uyghur Autonomous Region.

KIRISH

Diplomatik aloqalar etnik, diniy, yoki so‘zlashuv tili yaqinligidan kelib chiqib turlicha davrda, turlicha ko‘rinishda shakllanadi. Yuqorida qayd etilgan faktorlarni o‘zida mujassam etgan diplomatik aloqalar Afg‘oniston va Xitoy davlatlarining o‘zaro munosabatlarida ko‘rinadi. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar XVIII asrlarda asta-sekinlik bilan boshlangan bo‘lib, buyuk davlatlarning Afg‘onistondagi harbiy harakatlari natijasida Afg‘oniston nafaqat Xitoy balki boshqa chegaradosh davlatlar bilan ham iqtisodiy va siyosiy munosabatlarida qisqa uzhishlarga uchragan. Bugungi kunda Afg‘oniston va Xitoy o‘rtasidagi hududiy chegara 92 kmni tashkil qiladi. Bu O‘zbekiston -Afg‘oniston chegarasining uzunligidan 52 kmga qisqa.

Mavjud chegara chizig‘ining vujudga kelishi Xitoydagি Xan imperiyasining Afg‘oniston hududlariga yurishlari natijasida vujudga kelgan. (1-rasm)



1-rasm. Xan imperiyasining hududiy kengayishi.

Keyinchalik, Xan sulolasasi Markaziy Osiyo orqali Buyuk Ipak yo‘lini nazorat qilish uchun g‘arbiy hududlarida protektoratlarini shakllantirdi. Bu davrda hozirgi Afg‘oniston hududida buddizm juda keng yoyilgan bo‘lib, keyinchalik bu jarayon Xitoy hududlarini ham qamrab olgan. Xan sulolasiga oid manbalarda Kobul shahrining nomi “Kao-fu” nomi bilan atalgan. Shuningdek, manbalardagi “Kao-fu” joy nomi Markaziy Osiyonidagi Hindiston bilan bog‘lab turuvchi strategik nuqta sifatida keltiriladi¹.

Xitoyda Tang sulolasining kelishi bilan, Afg‘oniston hududlariga bo‘lgan da’volar kuchayib bordi. Tang sulolasasi imperatorlari esa ushbu jarayonni harbiy yo‘l bilan amalga oshirish uchun yetarlicha kuch qudratga ega edilar. 659-yilda Sog‘d, Farg‘ona, Toshkent, Samarkand, Balx, Hirot va Kobul kabi shaharlar Xitoyning Gaozong pretekrorati tarkibiga kirgan. Bu vaziyatda sosoniyarlarning arablar tomonidan mag‘lubiyatga uchratilganligi Xitoya ustunlik bergen degan xulosaga kelishimiz mumkin. Mo‘g‘ullar davrida esa barcha hududlar yagona imperiya ostida birlashdi. (2-rasm)



2-rasm. Mog‘ullar davrida Xitoy va Afg‘oniston hududlari

1760-yillarga kelib Xitoyda Qin imperiyasi va Afg‘onistonning qudratli amiri Ahmadshoh Abdali o‘rtasida ziddiyatlar vujudga keladi. Xitoyliklarning O‘rta Osiyo mintaqasidagi harakatlari qozoq va qirg‘iz boshliqlarini vahimaga soldi. Keyinchalik

¹ Shen-Yu Dai. China and Afghanistan. The China Quarterly. Vol 25. 2009. P. 213-221

Ahmadshoh 1762-yilda Qin saroyiga maktub yozib, musulmonlar yashaydigan hududlarni tark etishini talab qiladi. Lekin ayrim manbalarda Xitoy qo'shinlari afg'onlar bilan to'qnash kelishga tayyor bo'lganliklari ham bayon qilingan.²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asrda munosabatlarning rivojlanishi darajasi juda past ko'rsatkichlarga ega edi. Shunga qaramasdan, Xitoy sovuq urush davrida Afg'onistonga moddiy yordam sifatida uzoq muddatli kreditlar ajratgan. XXI asrga kelib esa munosabatlar sezirarli darajada o'zgardi. Bugungi kunga kelib Xitoy Afg'onistonda katta ta'sirga ega mamlakatlar qatoridan joy olgan. 2021-yilda Tolibon mamlakat ustidan nazoratni qo'lga olganidan so'ng, Xitoy de-yure holatida Afg'oniston hukumati bilan munosabatlarni olib bormoqda. Shuning ko'plab mamlakatlar qatorida Xitoy ham sobiq Afg'oniston Islom Respublikasining Xitoydag'i elchixonalarida Tolibon hukumati a'zolarining faoliyat yuritishiga va o'zaro yorliqlarni almashinishiga yetarlicha shart-sharoit yaratdi.

Tarixdan XX asrning boshlariga bo'lgan davrda ikki davlat munosabatlari katta dinamik o'zgarishlardan iborat. Afg'oniston Xitoy Xalq Respublikasini 1950-yil yanvar oyida rasman tan olgan davlat edi. Lekin aloqalar 5 yil o'tib boshlangan. 1955-yilda Abdul Samad Afg'onistonning Pekindagi birinchi elchisi etib tayinlandi. 1957-yilda Xitoy Bosh Vaziri Chjou Enlay Afg'onistonga tashrif buyuradi va Afg'oniston qiroli Muhammad Zohirshoh bilan uchrashadi. Shu yilning oktabr oyida Afg'oniston bosh vaziri Muhammad Doud ham Xitoya tashrif buyuradi. Yuqorida ko'rsatilgan uchrashuvlar Afg'oniston va Xitoy o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy sohalarni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Afg'onistonning "Pushtiniston" g'oyasini Xitoy hukumati qo'llab-quvvatlamadi. Bu Xitoy va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin Xitoy Afg'oniston bilan munosabatlarini saqlab qolishga harakat qilgan holda, 1960-yil do'stlik va hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzoladi. Keyinchalik 1963-yilda davlatlar o'rtasidagi chegaralar delimitatsiya va demorkatsiya qilindi.³ Buning natijasida Badaxshon va Shinjon-Uyg'ur avtonomiyasini o'rtasidagi hududiy masalalarga barham berildi.

Afg'oniston tarixida "Savr inqilobi" nomi bilan tilga olinadigan siyosiy voqealik ikki davlat munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. 1979-yil Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi va Babrak Karmalning hukumatga kelishi Xitoy hukumati

² Nebwy L.J. The Empire and the Khanate: A political history of Qing relations with Khoqand C1760-1860. 2005. P. 154.

³ International boundary study. Afghanistan-China Boundary. No.89-May 1, 1969.

<https://web.archive.org/web/20150103225351/http://www.law.fsu.edu/library/collection/limitsinseas/IBS089.pdf>

tomonidan qoralandi. Buning natijasida, Xitoy Afg'onistondagi elchixonalarini yopdi. Bunga sabab hukumatga kelgan kommunistlar Xitoyning dushmani bo'lgan Vietnamni ham qo'llab-quvvatlaganligida edi. Kommunistlar esa Xitoyni aksincha antikommunistlarga qarshi jangarilarni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblagan. Aslida esa Xitoy turli terroristik guruahlarni AQSh hukumatida qurollarni sotib olish orqali ta'minlagan edi. SSSRning Afg'onistonga kirib kelishi Xitoy uchun juda katta xavf sifatida baholangan. Bu Xitoy hududini o'rab olish ehtimoligi yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, Xitoyning yaqin ittifoqchisi bo'lgan Pokistonga SSSRning yaqinlashuvi Xitoy manfatlari uchun zid edi.

Afg'onistondagi mayjud partiyalar muvaqqat hukumatni shakllantira olmadi. Buning natijasida Tolibon harakati hukumatni egalladi. Xitoy hukumati Afg'oniston bilan munosabatlarini yakunladi. Xitoyning asosiy xavotiri Tolibon va "Sharqiy Turkiston Islom harakati" bilan munosabatlarining rivojlanishida edi. Xitoy "Tolibon harakati"ning harakatlarini kuzatgan holda, 1999-yilda Tolibon harakatiga delegatsiya yubordi. Keyinchalik Xitoyning Pokistondagi elchisi Lu Shulin Mulla Umar bilan uchrashgan birinchi yuqori martbali vakil sifatida tarixda qoldi. 2001-yil voqealaridan keyin ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yaxshilandi. 2002-yil yanvar oyida xitoy prezidenti Jiang Zemin bilan uchrashdi. Tashrif davomida Xitoy hukumati Afg'onistonga 150 million dollarlik moddiy yordam ko'rsatishini e'lon qildi. Xitoyning Afg'onistondagi elchixonasi esa 6 fevraldan qayta o'z faoliyatini boshladi. 2017-yilga kelib, Xitoy o'zining uch tomonlama muloqot forumini tashkil etdi. Bu Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro ayblovlarga barham berish maqsadida amlga oshirildi. Keyinchalik Xitoy Shanxay hamkorlik tashkilotining Afg'oniston bo'yicha aloqa guruhi faoliyatini qaytadan tikladi⁴. Mintaqaviy barqarorlikka erishish uchun Xitoy 2015-yilda to'rt tomonlama movofiqlashtiruvchi guruh va Moskva formatiga qo'shildi. Shinjon poytaxti Urumchida Tolibon va afg'on hukumati o'rtasidagi muzokaralar bo'lib o'tdi. 2014-2018 yillar umumiy hisobda Xitoy Tolibon bilan bir necha marotaba uchrashuvlarni amalga oshirgan.

XX asrda munosabatlarning rivojlanishi darajasini juda past ko'rsatkichlarga ega. Shunga qaramasdan, Xitoy sovuq urush davrida Afg'onistonga moddiy yordam sifatida uzoq muddatli kreditlar ajratgan. XXI asrga kelib esa munosabatlar sezirarli darajada o'zgardi. Bugungi kunga kelib Xitoy Afg'onistonda katta ta'sirga ega mamlakatlar qatoridan joy olgan. 2021-yilda Tolibon mamlakat ustidan nazoratni qo'lga olganidan so'ng, Xitoy de-yure holatida Afg'oniston hukumati bilan munosabatlarni olib bormoqda. Shuning ko'plab mamlakatlar qatorida Xitoy ham

⁴ Sudha Ramachandran. China's Peacemaking between Pakistan and Afghanistan. Analytical Articles. 2017 <https://www.cacialyst.org/publications/analytical-articles/item/13468-chinas-peacemaking-between-pakistan-and-afghanistan.html>

sobiq Afg'oniston Islom Respublikasining Xitoydagi elchixonalarida Tolibon hukumati a'zolarining faoliyat yuritishiga va o'zaro yorliqlarni almashinishiga yetarlicha shart-sharoit yaratdi.

2021-yilga kelib Afg'oniston Tolibon harakati tomonidan bosib olinganidan so'ng, Xitoy hukumati Afg'oniston bilan yana yaqinlashishga harakat qildi. Bu holat Xitoy hukumatining xavfsizlik bilan bog'liq muammolarini yodga soldi⁵. Xitoyning Afg'oniston bilan munosabatlari 2022-yilda sodir bo'lgan zilzila sababli yanada rivojlandi. Chunki Xitoy hukumati Tolibon hukumatiga 7,5 million dollar miqdorida yordam ko'rsatdi. Shuningdek, Xitoyning Afg'onistondagi elchisi Afg'oniston qizil yarim oy jamiyatiga 18 tonna yuk va 200000 AQSh dollari miqdorida mablag' ajratdi.⁶ Bu Xitoyning yangi Afg'oniston hukumati bilan murosaga kelishi uchun yaxshi imkon sifatida baholangan.

2023-yilga kelib, Xitoy hukumati Chjao Xingni Afg'onistonga elchi qilib tayinladi. Bu Tolibon harakatining g'alabasidan so'ng Afg'onistonda elchi tayinlagan birinchi davlat edi. Shu yilning o'zida Bilol Karimi Afg'onistonning Xitoydagi elchisi qilib tayinlanadi. 2024-yilda Bilol Karimi Xitoy prezidentiga ishonch yorliqlarini topshirdi. Xitoy esa Tolibon hukumati tomonidan ishonch yorlig'ini qabul qilgan birinchi davlat bo'ldi. Xitoy Tolibon hukumatini de yure holatida tan olgan bo'lsa ham, bu harakatlarning orqasida uyg'ur separatistlarining faoliyatini cheklash yoki butunlay yo'q qilish asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko'rindi. Shunga qaramasdan, "Sharqiy Turkiston Islom harakati" ning Afg'onistonda harbiy bazalari mavjud edi. Bu holatga qarshi Xitoy hukumati Afg'onistonning Badaxshon viloyatida joylashgan Gazxon qishlog'ida harbiy baza qurgan. Bu terrorizmga qarshi kurashishdagi harbiy hamkorlik bo'lib, barcha harajatlar Xitoy hukumati tomonidan moliyalashtirilgan.


Xitoy odatda o'zining boshqa bir davlatga nisbatan olib borayotga tashqi siyosatini iqtisod bilan bog'liq holda amalga oshiradi. Bu Afg'oniston va Xitoy munosabatlarda ham ko'zga tashlanadi. Xitoy Afg'onistonning eng yirik sarmoyachilaridan biri bo'lib, Xitoyning asosiy qiziqishi Afg'oniston hududidagi foydali qazilmalar bilan bog'liq. Afg'oniston geologik jihatdan Janubiy Osiyodagi eng kam qazishmalar olib borilgan hududdir. 2010-yilga kelib, Xitoy Afg'onistonning foydali qazilmalarni qazish huquqini sotib oldi va hozirga qadar Afg'onistonning Aynak va boshqa miskonlaridan mis qazib olish jarayonini nazorat

⁵ Stephanie Findlay, Christian Shepherd, James Kynge. China watches afghanistan anxiously as the US withdraws. Financial Times. 2021. <https://www.ft.com/content/49d266c6-a6c2-4ab2-bf52-ed34d72b22c1>

⁶ ARCS. 2022. China donated 18 tons of items and 200000 US dollars to The Afghan Red Crescent Society to help The Earthquake victims. <https://reliefweb.int/report/afghanistan/china-donated-18-tons-items-and-200000-us-dollars-afghan-red-crescent-society-help-earthquake-victims>

qiladi. 2018-yilga kelib, Xitoy Amudaryo havzasidan neft qazib olishni boshladi. Xitoyning yuqoridagi amalga oshiriayotgan harakatlari nafaqat Afg'oniston uchun balki Xitoyning iqtisodini yanada kengaytirishga yordam beradi.

Xitoyning yana bir navbatdagi yirik iqtisodiy loyihasi bu "Bir makon bir yo'l" dir. Bu aslida Xitoyning eski "Buyuk ipak yo'l"ni qaytadan tiklash bilan bog'liq. Afg'oniston va Xitoy o'rtaqidagi savdo aloqalari asosan Shinjon va ikki davlat chegarasidagi Vaxon yo'lagi orqali karvonlar orqali meva va choy savdosidan iborat bo'lgan. Bugungi kunga kelib loyiha nafaqat Afg'oniston, Pokiston balki dunyoning ko'plab davlatlarini o'z ichiga oladi. (3-rasm)



3-rasm. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" loyihasi va loyihaga a'zo davlatlar.

Xitoyning ushbu loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshishi mintaqaviy xavfsizlik bilan bog'liq. Xitoy "Bir makon, bir yo'l" loyihasiga CPEC (China-Pakistan Economic Corridor) loyihasi orqali Afg'onistonni integratsiya qilishga harakat qilmoqda.

2023-yilgi holatga ko'ra ushbu loyiha Afg'onistondagi xavfsizlik bilan bog'liq muammolarning to'laqonli bartaraf etilmaganligi tufayli amalga oshmagan. Lekin, 2023-yil Pekinda bo'lib o'tgan "Bir kamar, bir yo'l" loyihasining forumida Afg'oniston savdo va sanoat Vaziri vazifasini bajaruvchisi Nuruddin Azizi ishtrok etgan.⁷ Bu Afg'onistonning ushbu loyihaga befarq emasligidan dalolat beradi.

⁷ Joe Cash. Taliban representative arrives in Beijing to attend Belt and Road Forum. Reuters. 2023. <https://www.reuters.com/world/taliban-representative-arrives-beijing-attend-belt-road-forum-2023-10-17/>

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Afg'oniston-Xitoy munosabatlarining rivojlanish tarixi turli davrlarda turlicha ko'rinishga ega. Hozirgi kunda esa ikki davlat munosabatlari siyosiy va iqtisodiy jihatdan yaxshilangan bo'lib, bu holat ikki davlatning mafaatlar uchun xizmat qilmoqda. Xitoyning bu boradagi pozitsiyasi asosan mamlakat xavfsizligini saqlashga qaratilgan. Afg'oniston va Xitoy o'rta sidagi o'zaro manfaatli iqtisodiy loyihalar mintaqadagi xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni butunlay to'xtata olmasa-da, muayyan darajada kamaytirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Shen-Yu Dai. China and Afghanistan. *The China Quarterly*. Vol 25. 2009. P. 213-221
2. Nebwy L.J. *The Empire and the Khanate: A political history of Qing relations with Khoqand C1760-1860*. 2005. P. 154.
3. International boundary study. *Afghanistan-China Boundary*. No.89-May 1, 1969.
<https://web.archive.org/web/20150103225351/http://www.law.fsu.edu/library/collection/limitsinseas/IBS089.pdf>
4. Sudha Ramachandran. *China's Peacemaking between Pakistan and Afghanistan. Analytical Articles*. 2017 <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13468-chinas-peacemaking-between-pakistan-and-afghanistan.html>
5. Stephanie Findlay, Christian Shepherd, James Kynge. *China watches afghanistan anxiously as the US withdraws*. Financial Times. 2021. <https://www.ft.com/content/49d266c6-a6c2-4ab2-bf52-ed34d72b22c1>
6. ARCS. 2022. *China donated 18 tons of items and 200000 US dollars to The Afghan Red Crescent Society to help The Earthquake victims*. <https://reliefweb.int/report/afghanistan/china-donated-18-tons-items-and-200000-us-dollars-afghan-red-crescent-society-help-earthquake-victims>
7. Joe Cash. *Taliban representative arrives in Beijing to attend Belt and Road Forum*. Reuters. 2023. <https://www.reuters.com/world/taliban-representative-arrives-beijing-attend-belt-road-forum-2023-10-17/>